



**UNODC**  
United Nations Office on Drugs and Crime  
Regional Office for Central Asia



**UNESCO**  
United Nations  
Educational, Scientific and  
Cultural Organization



**YOUTH AFFAIRS  
AGENCY**



**TASHKENT  
STATE  
UNIVERSITY  
OF LAW**

# SO'RAGAN EDINGIZ



Oila masalalari bo'yicha huquqiy  
savol-javoblar to'plami

Mazkur to'plam Toshkent davlat yuridik universiteti yuridik klinikasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi hamkorligida tayyorlangan huquqiy ommabop adabiyotlardan biri hisoblanadi. To'plamni tayyorlashdan asosiy maqsad aholining, xususan yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, kundalik hayotda turli sohalar-da ro'y berayotgan huquqiy muammolarning yechimini savol-javob tarzida, keng jamoatchilikka tushunarli shaklda yetkazishdan iborat.

Ushbu to'plam oila munosabatlari sohasidagi masalalarga bag'ishlangan bo'lib, unda nikoh tuzish, uni bekor qilish, aliment undirish, er-xotinning o'zaro mulkiy huquqlari, farzandlarning huquq va majburiyatlari, farzandlikka olish, bolani parvarishlash uchun nafaqa olish kabi kundalik hayotda uchraydigan holatlar bo'yicha huquqiy savol-javoblar berilgan. To'plamga kiritilgan masalalar Toshkent davlat yuridik klinikasiga onlayn va bevosita kelib tushgan murojaatlar asosida ishlab chiqilgan.

Savollaringizni Toshkent davlat yuridik universiteti yuridik klinikasining ijtimoiy tarmoqlardagi quyidagi sahifalari orqali yo'llashingiz mumkin:

Telegram manzili: @probonouz\_bot

Facebook manzili: <https://www.facebook.com/tsullegalclinic/>

Instagram manzili: [https://instagram.com/tsul\\_legal\\_clinic](https://instagram.com/tsul_legal_clinic)

Youtube manzili:

<https://www.youtube.com/channel/UC4uvuX9DE2fSt6KZUxihMNA/featured>

TikTok manzili: [https://www.tiktok.com/@tdyu\\_yuridik\\_klinikasi](https://www.tiktok.com/@tdyu_yuridik_klinikasi)

Ushbu nashrning mazmuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi yoki uning faoliyatiga hissa qo'shadigan tashkilotlarning qarashlari yoki siyosatlarini aks ettirmaydi, shuningdek, ushbu nashrda qo'llanilgan va taqdim etilgan belgilar va materiallar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi tomonidan biron bir mamlakat, hudud yoki shaharning yoki uning hokimiyatining huquqiy maqomi yoki uning chegaralarini delimitatsiya qilish to'g'risida hech qanday fikr bildirishni nazarda tutmaydi.

Ushbu nashr to'liq yoki qisman va har qanday shaklda ta'lim yoki notijorat maqsadlarda, mualliflik huquqi egasining maxsus ruxsatisiz, manbani tasdiqlash sharti bilan ko'paytirilishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi ushbu nashrdan manba sifatida foydalanadigan har qanday nashrning nusxasini olishdan mamnun bo'ladi. Ushbu nashr BMTning Tinchlikni ta'minlash jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan "Farg'ona vodiysida yoshlarning ijtimoiy uyg'unligi" qo'shma loyihasi doirasida tayyorlangan.

© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021

© Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi, 2021

© Otabek Narziev, 2021

# **SO'RAGAN EDINGIZ**

(Oila masalalari bo'yicha  
huquqiy savol-javoblar  
to'plami)

# MUNDARIJA

1-savol. Aliment to'lash tartibi.....	6
2-savol. Patronat nima?.....	6
3-savol. Nikohdan ajratish uchun davlat boji.....	7
4-savol. Bola taqdiri nima bo'ladi? .....	8
5-savol. Ajrim uchun muhlat beriladimi? .....	9
6-savol. Nikoh haqiqiy emas deb topiladimi?.....	9
7-savol. Ota bolasini ta'minlaydimi? .....	9
8-savol. Farzandlikka olsam bo'ladimi?.....	10
9-savol. Uy bo'linadimi?.....	11
10-savol. Ajrim uchun asos bo'ladimi? .....	11
11-savol. Tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi.....	12
12-savol. Aliment qaysi kundan beriladi? .....	13
13-savol. Agar alimentni to'lamasa.....	13
14-savol. Tug'ilganlik haqida guvohnoma olish.....	14
15-savol. Aliment undirish.....	14
16-savol. Er va xotinning har birining mulki? .....	14
17-savol. Nikoh shartnomasi .....	15
18-savol. Bolani olsam bo'ladimi .....	15
19-savol. Ismni o'zgartirish .....	16
20-savol. Nikoh nima?.....	17
21-savol. Ota-onalik huquqini amalga oshirish.....	17
22-savol. Aliment puli qancha? .....	18
23-savol. Aliment kelishuvi .....	19
24-savol. Aliment qarzi? .....	20
25-savol. Chetga chiqsam bo'ladimi? .....	20
26-savol. Nikohdan ajratish .....	20
27-savol. Otam aliment undirishi mumkinmi? .....	21
28-savol. Bolaning nasl-nasabi?.....	22
29-savol. Onalikdan mahrum qilish .....	23
30-savol. Rozilik asosida nikohdan ajratish.....	23



## **1-savol. Aliment to'lash tartibi**

### ***Bir nafar farzand uchun aliment to'lash tartibi qanday?***

Oila kodeksining 96-moddasiga binoan, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart. 99-moddada aytilishicha, agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun – to'rt dan bir qismi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvoli va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin. Demak, bitta farzandga aliment to'lovchining har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining to'rt dan bir qismidan olib beriladi.

Aliment to'lovchi davlat ishida ishlamasa, aliment to'lamasligi mumkinmi?

Oila kodeksi 140-moddasida agar aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs shu davrda ishlamagan bo'lsa yoki uning ish haqi va (yoki) daromadini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinmagan bo'lsa, aliment qarzi undirilayotgan vaqtda aliment O'zbekiston Respublikasidagi o'rtacha oylik ish haqi miqdori bo'yicha hisoblab chiqilishi ko'rsatilgan.

## **2-savol. Patronat nima?**

***Assalomu alaykum. Men ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolani tarbiyaga yani patronatga olsam bo'ladimi? Bu haqida ma'lumot bersangiz.***

### **Ushbu savolingizga Oila kodeksi asosida javob beramiz.**

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan tarbiya va davolash muassasalarida, shuningdek aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi. Bolalarni oilaga tarbiyaga olishni istagan shaxs vasiylik va homiylik organlari bilan kelishilgan holda bolalarni oldindan tanlab oladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish ularning xohishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. O'n yoshga to'lgan bolalarni ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga berish mumkin.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish tartibi va shartlari qonunchilik bilan belgilanadi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-ona o'rtasida tuziladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvda bolalarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish, tarbiyaga olgan tutingan ota-onaning huquq va majburiyatlari, vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tarbiyaga olgan oilaga nisbatan majburiyatlari, shuningdek bunday kelishuvni bekor qilish asoslari va oqibatlari ko'rsatilishi kerak.

Kelishuv tuzilishidan oldin bolani tarbiyaga olayotgan shaxsning turmush shart-sharoitlari va oila a'zolarining sog'lig'i tekshiriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berishda vasiylik va homiylik organlari ularga bir yo'la kiyim-bosh va poyabzal beradi, bolani oilaga tarbiyaga olgan shaxsga esa, oilaga tarbiyaga olingan bolaning ta'minoti uchun qonunchilikda belgilangan miqdorda har oyda nafaqa to'lab turadi.

Bolalarni tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv uzrli sabablar (kasalligi, oilaviy yoki mulkiy mavqeyining o'zgarishi, tarbiyasidagi bolalar bilan o'zaro bir-birini tushunmaslik va boshqa sabablar) mavjud bo'lsa,

bolalarning tutingan ota-onasi tashabbusi bilan, shuningdek vasiylik va homiylik organlarining tashabbusi bilan yoki bola ota-onasiga qaytarilgan yoxud bola farzandlikka olingan taqdirda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvni bekor qilishga oid nizolar sud tartibida hal qilinadi.

Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar:

- o'zlariga tegishli bo'lgan aliment, shuningdek pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarni olish;
- uy-joyga bo'lgan mulk huquqi yoki uy-joylardan foydalanish;
- qonunchilikka muvofiq uy-joy olish huquqlarini saqlab qoladilar.

Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish, ota-onasi va qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ham egadirlar.

Bolaning manfaatiga daxldor har qanday masala oilada hal qilinayotganida bola o'z fikrini bildirishga haqli.

Voyaga yetgan har ikki jinsdagi shaxslar tutingan ota-ona bo'lishlari mumkin, quyidagilar bundan mustasno:

- sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;
- sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklangan shaxslar;
- qonun bilan o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatni lozim darajada bajarmaganligi uchun vasiylik yoki homiylik vazifalarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar;
- ilgari farzandlikka bola olgan, lekin sud tomonidan farzandlikka olish bekor qilingan shaxslar;
- qasddan qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilingan shaxslar;
- sog'lig'ining holatiga ko'ra bolani tarbiyalash majburiyatini bajara olmaydigan shaxslar.

Tutingan ota-onalarni tanlash vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tutingan ota-ona tarbiyaga olingan bolaga nisbatan vasiylik huquq va majburiyatlariga egadir.

Bolalarni tarbiyaga olgan shaxslar o'z huquqlaridan g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda, tarbiyasidagi bolalarga zarar keltirgan holda foydalansalar, shuningdek ularni nazoratsiz hamda zarur moddiy yordamsiz qoldirsalar, vasiylik va homiylik organi bolalarni tarbiyaga olgan shaxslarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalasini qo'zg'atishga haqli.

### **3-savol. Nikohdan ajratish uchun davlat boji**

***Assalomu alaykum. Mening savolim shundan iboratki, erim arzimagan sabablarga ko'ra ajrashmoqchi, men esa ajrashishni xohlamayman. Turmush qurganimizga 2 yil bo'ldi. Farzandimiz yo'q. Ajrashish uchun qayerga ariza beriladi? Ariza berilgan taqdirda qancha muddat beriladi va davlat boji qancha? Agar men xohlamasam, muddat qanchagacha uzaytiriladi? O'rtada farzand bo'lmasa ham biror narsa talab qilib sudga chiqishim mumkinmi?***

***Oila kodeksining 38-moddasiga ko'ra***, nikohdan sud tartibida (Fuqarolik sudida da'vo tartibida ko'rish orqali), tomonlar rozi bo'lganda, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratiladi.

Bundan tashqari, ***Oila kodeksining 40-moddasi 2-qismiga ko'ra***, sud ishning ko'rilishini keyinga qoldirib, er-xotining yarashish uchun ***olti oygacha muhlat*** tayinlashga haqli.

***Oliy sudning "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 16-bandiga ko'ra***, nikohdan ajratish to'g'risidagi talab faqat er-xotin bundan buyon birga hayot kechirishlari va oila batamom buzilganligi sababli uni saqlab qolishning iloji yo'qligi aniqlangan taqdirdagi qanoatlantirilishi lozim (Oila kodeksi, 41-modda).

Turmushda kechadigan vaqtinchalik kelishmovchiliklar va tasodifiy sabablarga ko'ra er-xotin o'rtasida kelib chiqqan ixtiloflar, shuningdek, er-xotindan birining yoki har ikkalasining jiddiy vajlar keltirmagan holda nikoh munosabatlarini davom ettirishni xohlamasligi nikohdan ajratish uchun yetarli asos bo'la olmaydi.

Nikohdan ajratishga asoslar bo'lmaganda, sud da'voni rad etadi.

*O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi qonuniga ko'ra,*

**nikohning bekor qilinganligini qayd etganlik uchun:**

voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotinlarning o'zaro roziligi bo'yicha - er-xotinlarning biridan yoki ikkalasidan bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 1,5 baravari;

agar er-xotin birinchi nikohda bo'lsa, sud qaroriga asosan - BHMning 1,5 dan 3 baravarigacha (er-xotinning biridan yoki ularning ikkalasidan);

er-xotindan biri takroriy nikohda bo'lsa, sud qaroriga asosan - BHMning 3 dan 4 baravarigacha (er-xotinning biridan yoki ularning ikkalasidan).

**Oliy sudning "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 15-band 1-qismiga** ko'ra, er-xotin yoki bir tomonning xohishiga ko'ra yarashtirish maqsadida olti oylik muhlat ichida ishning ko'rilishi bir necha marta keyinga qoldirilishi mumkin.

Oila kodeksining 27-moddasiga binoan, er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, kimning nomiga rasmiylashtirilgan mulk bo'lishidan qat'i nazar, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanishi aytilgan. Ushbu mulkni bo'lish o'zaro kelishuv asosida, notarial tartibda yoki nizo mavjud bo'lganda, sud tartibida amalga oshiriladi.

#### **4-savol. Bola taqdiri nima bo'ladi?**

***Assalomu alaykum. Er-xotin nikohdan ajratilyapti. Lekin bola kim bilan qoladi? Sud buni hal qiladimi?***

Oila kodeksining 44-moddasida nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarish vaqtida sud tomonidan hal etiladigan masalalar keltirilgan bo'lib, unga ko'ra nikohdan sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi, bolalarga va (yoki) mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotining ta'minot berish uchun mablag' to'lash tartibi, bu mablag'ning miqdori yoxud er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishga doir kelishuvni ko'rib chiqish uchun sudga taqdim qilishlari mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha er va xotin o'rtasida kelishuv bo'lmagan taqdirda, shuningdek ushbu kelishuv bolalar yoki er-xotindan birining manfaatlariga zid ekanligi aniqlangan taqdirda sud:

- nikohdan ajratilgandan keyin voyaga yetmagan bolalar ota-onasining qaysi biri bilan yashashini aniqlashi;
- voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish uchun ota-onaning qaysi biridan va qancha miqdorda aliment undirilishini aniqlashi;
- er va xotinning (ulardan birining) talabiga ko'ra ularning birgalikdagi mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lishi;
- er (xotin)dan ta'minot olishga haqli bo'lgan xotin (er)ning talabiga ko'ra ana shu ta'minot miqdorini belgilashi shart.

Mol-mulkni bo'lish uchunchi shaxslarning manfaatiga daxldor bo'lgan hollarda sud mol-mulkni bo'lish talabini alohida ish yuritish uchun ajratadi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganida to'yni o'tkazishga ketgan sarf-xarajatlarni undirish haqidagi talablar qanoatlantirilmaydi.



Demak, sud nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarish vaqtida nikohdan ajratilgandan keyin voyaga yetmagan bolalar ota-onasining qaysi biri bilan yashashini ham qilar ekan.

#### **5-savol. Ajrim uchun muhlat beriladimi?**

***Fuqarolik sudiga ajrashish uchun ariza tushgan. Da'vogor suddan muhlat bermasdan ajratib yuborishini so'ragan. Sud raisi tomonlarga muhlat bermasdan ajratib yuborishi mumkinmi?***

***Oila kodeksining 40-moddasiga asosan***, fuqaro ajrashish uchun da'vo ariza bilan murojaat qilganda, sud ishni keyinga qoldirib, er-xotonga yarashish uchun ***olti oygacha muhlat tayinlashga haqli***.

Sud er-xotonga yarashish uchun muhlat tayinlab, ishning ko'rilishini keyinga qoldirgan taqdirda, er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashirish komissiyasi, agar ular birga yashamayotgan bo'lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashirish komissiyasini er-xotinni yarashirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish uchun uch kundan kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilish kerak.

Shuningdek, ***Oliy sud Plenumining "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 15-bandiga binoan***, sud er va xotinning yoki ulardan birining arizasiga ko'ra, yarashish uchun berilgan muhlatni jiddiy asoslar mavjud bo'lgan hollarda qisqartirish va ishni bu muhlat tugagunga qadar ko'rishga haqli. Yarashish uchun berilgan muhlatni qisqartirish to'g'risidagi masala sud majlisida taraflarni xabardor qilgan holda va ajrim chiqarish yo'li bilan hal etiladi.

Demak, ushbu holatda da'vogarning sudga muhlat bermasdan ajratib yuborishini so'rashi sudning oilani ajratib yuborishi uchun asos bo'lmaydi. Sud vaziyatni to'laqonli o'rganib chiqib, barcha holatlarni inobatga olgan holda qaror qabul qiladi.

#### **6-savol. Nikoh haqiqiy emas deb topiladimi?**

***Assalomu alaykum! Savolim quyidagicha: nikohni haqiqiy emas deb topish tartibi haqida ma lumot bersangiz?***

Oila kodeksining 50-moddasida nikohni haqiqiy emas deb topish tartibi keltirilgan bo'lib unga ko'r, nikohni haqiqiy emas deb topish faqat sud tartibida amalga oshiriladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qaroridan nusxa berilayotganda pasportga yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatga tegishli belgi qo'yiladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sud chiqargan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kimgach, o'n kun ichida undan ko'chirma nikoh tuzilganligi ro'yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboriladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sud chiqargan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kimgach, o'n kun ichida undan ko'chirma nikoh tuzilganligi ro'yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboriladi.

#### **7-savol. Ota bolasini ta'minlaydimi?**

***Qiz bilan yigit oila qurishgan va o'rtada 1 nafar farzand bor, lekin ular ZAGSdan o'tishmagan. Er farzandi uchun familiya ham bermagan. Savolim shuki, ota farzandi uchun moddiy ta'minot va o'z familiasini berishi uchun nima qilish kerak?***

*Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-son qaroriga 1-ILOVA qilingan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari»ning 40-bandiga ko'ra, nikohda bo'lmagan ota-onadan tug'ilgan bolaga otalikni belgilash ota va onasi (agar otasi voyaga yetmagan hisoblansa, u holda qonuniy vakili) tomonidan*

***birgalikda berilgan arizasi yoki sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida FHDY organida amalga oshiriladi.***

Otalikni belgilash to'g'risidagi ariza nikohda bo'lmagan ota-ona tomonidan birgalikda tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvini qayd etgan FHDY organiga beriladi.

Ota-onaning birgalikdagi arizasi bo'lmagan taqdirda otalik (agar otasi yoki onasi voyaga yetmagan bo'lsa yoki otalikni belgilashga tomonlardan biri norozi bo'lsa) ota-onalardan biri yoki vasiylik va homiylik organining da'vo arizasi bo'yicha sud tartibida belgilanishi mumkin.

E'tiborga olinishi kerakki, 10 yoshga to'lgan va katta yoshdagi bolaga nisbatan otalik uning roziligi bilan belgilanadi. Bunda bolaning roziligi ota-onasi tomonidan berilgan arizada uning shaxsiy imzosi bilan ifodalanadi va uning imzosi FHDY organi xodimi tomonidan tasdiqlanadi.

Agar otalikni belgilash 16 yoshga to'lgan shaxsga nisbatan amalga oshirilsa, u holda ota to'g'risidagi ma'lumotlar o'zgartirilishi lozim. Bola to'g'risidagi ma'lumotlar familiya, ism va ota ismini o'zgartirish tartibi va qoidalari bo'yicha kiritiladi.

Otalik bolaning otasi boshqa ayol bilan qonuniy nikohda turganligidan qat'i nazar belgilanadi. Shu sababli otalikni belgilashda uning xotining (amaldagi qonuniy nikohida bo'lgan) roziligi talab etilmaydi.

Oila kodeksining 96-moddasiga ko'ra, voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qarori yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi.

Qonunga ko'ra, voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yoxud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek, o'n to'rt yoshga to'lgan bola voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir.

Shuningdek, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish uchun aliment to'lash tartibini o'zaro kelishgan holda belgilashga haqlidirlar.

***Qonun hujjatlariga asoslanib, savolingizga quyidagi yechimni taklif qilamiz:***

*Ota-ona farzandiga otasining familiyasini berish uchun:*

- ota (yoki ona) farzandining onasi (yoki otasi) bilan birgalikda FHDY Oga otalikni belgilash to'g'risida ariza bilan murojaat qilishi yoki fuqarolik sudiga da'vo arizasi kiritish;

*Ota-ona farzandiga moddiy ta'minot ajratish uchun:*

- ota (yoki ona) farzandining onasi (yoki otasi) bilan kelishgan holda undan farzandi uchun moddiy ta'minot olish yoki aliment undirish uchun fuqarolik sudiga da'vo arizasi bilan murojaat qilish.

**8-savol. Farzandlikka olsam bo'ladimi?**

***Assalomu alaykum. Farzandlikka olishni rasmiylashtirishda FHDY organiga qanday hujjatlar taqdim etaman?***

Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-son qaroriga 1-ILOVA qilingan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari»ga ko'ra

Farzandlikka olish haqida o'zgartirishlar kiritish sudning hal qiluv qarori asosida tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvini qayd etgan FHDY organida, farzandlikka olingan bolaning tug'ilgan joyi o'zgartirilganda esa – farzandlikka oluvchilar doimiy yashaydigan yoki vaqtincha turadigan joydagi FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi.

**Farzandlikka olishni rasmiylashtirishda FHDY organiga:**

- sudning qonuniy kuchga kirgan farzandlikka olish haqidagi qaroridan ko'chirma;
- farzandlikka olinayotgan bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi;
- farzandlikka oluvchi(lar)ning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi.

Sudning hal qiluv qarori kelib tushgan vaqtiga ko'ra maxsus daftarda qayd etiladi va alohida yig'majildga xronologik tartibda tikib qo'yiladi.

FHDY organi sudning hal qiluv qarori va farzandlikka oluvchilarning hujjatlari asosida tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga tegishli o'zgartirishlarni kiritadi, tug'ilganlik haqidagi yangi guvohnoma va, zarur bo'lganda, farzandlikka olinganligi haqida ma'lumotnoma beradi.

**9-savol. Uy bo'linadimi?**

***Assalomu alaykum! Savolim shundan iboratki, mening ikki nafar farzandim bor. 9 yosh qizim va 6 yosh o'g'lim. Hozirda turmush o'rtog'im bilan birga yashamayman, ammo mening nomimda turmush o'rtog'im ishlab olgan uy bor. Hozirda uyni sotmoqchimiz. Uy 4 qismga ya'ni bolalarimga ham bo'linadimi yoki ikki qismgami?***

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23-moddasiga ko'ra, er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulkari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi. Shuningdek, ushbu moddaning 3-qismiga ko'ra, er va xotindan biri uy-ro'zg'or ishlarini yuritish, bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo'lmagan taqdirda ham er va xotin umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo'ladi.

Oila kodeksining 24-moddasi 4-qismida, ko'chmas mol-mulknini tasarruf etish tartibi ko'rsatilgan bo'lib, er (xotin) o'zining nomiga rasmiylashtirgan umumiy ko'chmas mol-mulknini tasarruf etish bo'yicha bitim tuzishi uchun xotin (er)ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligini olishi lozim. Ko'rsatilgan bitimni tuzishga notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinmagan er yoki xotin mazkur bitim amalga oshirilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab bir yil davomida bu bitimni sud tartibida haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqli.

Shuningdek, 90-moddada ota-ona va bolaning mulkiy huquqiy munosabatlari ifoda etilgan bo'lib, ota-ona hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega emas. Ota-ona ham voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega emas.

Xulosa qiladigan bo'lsak, nikoh davrida orttirilgan mol-mulk er-xotinning umumiy mulki hisoblanib, har ikkisi unga nisbatan teng huquqqa ega bo'ladi. Voyaga yetmagan farzandlar ota-onasi qaramog'ida hisoblanadi va moddiy jihatdan ta'minot ota-ona tomonidan ta'minlanadi, demak, bu holatda uyni bo'lishda ularning ulushi hisoblab chiqilmaydi.

**10-savol. Ajrim uchun asos bo'ladimi?**

***Turmush o'rtog'im bilan ajrashmaganmiz, lekin u boshqa ayolga uylangan, yaqinda farzandli bo'ladi. Farzandli bo'lsa, o'z-o'zidan ajrim bo'lib ketadimi? Ajrimga bergandi, lekin vaqt berishgan. Berilgan vaqtdan o'tib ketdi. Lekin ariza tashlamayapti. Farzandli bo'lsam, o'z-o'zidan ajrim bo'ladi, deyapti. Shu to'g'rimi?***

**Oila Kodeksining 37-moddasiga ko'ra, nikoh er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohdan ajratish yo'li bilan tugatilishi mumkin.**

Sizning holatingizda Oila kodeksi 40-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlangan.

Ammo ta'kidlash joizki, eringizning farzandli bo'lishi ajrim uchun asos bo'la olmaydi. Oila kodeksining 41-moddasiga ko'ra, agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashi va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo'q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi.

**Eringizning farzandli bo'lishi o'z-o'zidan ajrim bo'lishiga sabab bo'la olmaydi.**

#### **11-savol. Tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi**

*Assalomu alaykum, savoilm quyidagicha. Yaqinda uylanmoqchiman lekin tanishlarim tibbiy ko'rikdan ham o'tishim lozimligi haqida aytishdi. Tibbiy ko'rikni o'tkazish tartibi haqida to'liq ma'lumot bersangiz.*

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdagi 365-son qaroriga 1-ILOVA "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi Nizomga binoan psixik kasalliklar (shizofreniya, epilepsiya, oligofreniya) mavjudligini tekshirish yashash joyidagi poliklinikaning psixiatr vrachi tomonidan amalga oshiriladi.

Tuman psixiatr vrachi bo'lmagan taqdirda psixiatrik tekshirish tumanlararo yoki viloyat psixonevrologiya dispanserining psixiatr vrachlari tomonidan amalga oshiriladi. Viloyat markazlari va Toshkent shahri aholisi hududiy tegishligiga qarab viloyat va shahar psixonevrologiya dispansyerlarida psixiatrik tekshirishdan o'tadi.

Agar nikohlanuvchi shaxslar psixik kasalliklar bo'yicha hisobda turmasa va unda ruhiy buzilishlar aniqlanmasa, ularga psixiatr vrachning imzosi qo'yilgan belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi. Ma'lumotnoma tibbiyot muassasasining muhri va rahbarning imzosi bilan tasdiqlanadi. Agar nikohlanuvchi shaxslar psixik kasalliklar bo'yicha dispanser hisobida tursa, ularga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi va vrach tuzilayotgan nikohning ehtimol tutilgan tibbiy-ijtimoiy oqibatlari to'g'risida tushuntirish beradi.

Narkologik tekshirish yashash joyidagi narkolog vrach tomonidan (narkologiya dispanserida yoki tuman narkologiya kabinetida) o'tkaziladi. Narkologik hisobda turmagan va tekshirish davrida ularda psixopatologik o'zgarishlar aniqlanmagan nikohlanuvchi shaxslarga ma'lumotnomada tegishli xulosa ko'rsatiladi.

Tibbiy ko'rik vaqtida narkolog vrach tomonidan narkologik tashxis qo'yilgan taqdirda yoki nikohlanuvchi hisobda tursa, ma'lumotnomada aniqlangan tashxis ko'rsatiladi. Narkologik hisobda turmagan va tekshirish davrida ularda psixofaol moddalar iste'mol qilinishidan dalolat beruvchi psixosomatik belgilar aniqlangan nikohlanuvchi shaxslar biologik suyuqliklarda psixofaol moddalarni aniqlash bo'yicha laboratoriya tekshiruvidan o'tadilar.

Klinik tekshiruvdan, poliklinikadagi tekshirishlar ma'lumotlari, flyuorogrammalar o'rganib chiqilgandan keyin, shuningdek zarurat bo'lganda qo'shimcha ravishda o'tkaziladigan rentgenologik, bakteriologik tekshirishlar va boshqa laboratoriya tekshirishlari natijalari o'rganib chiqilgandan so'ng ftiziatri tomonidan tekshirilayotganda sil kasalligi borligi yoki yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnoma rasmiylashtiriladi. Ma'lumotnoma ftiziatri, bosh vrach tomonidan imzolanadi va sil kasalligiga qarshi dispanserning muhri bilan tasdiqlanadi.

Nikohlanuvchi shaxslar OIV/OITSGa tekshirishdan o'tish uchun yashash joyidagi yashirin tekshirish xonasiga yoki OITS markazlariga murojaat qiladilar. Yashirin tekshirish xonasida testgacha bo'lgan maslahat beriladi hamda OIV/OITS kasalligi bo'lishi ehtimolini ko'rsatuvchi anamnestic ma'lumotlar va klinik belgilar

mavjud bo'lgan taqdirda tekshirilayotgan shaxsning qoni tuman yoki tumanlararo OITS tashxis qo'yish laboratoriyasiga yuboriladi.

Birlamchi immunoferment tekshirish ijobiy natija bergan taqdirda, mijozning qoni zardobi viloyat laboratoriyasiga yuboriladi, ijobiy natija tasdiqlangan taqdirda qon zardobi immunoblot usuli bilan uzil-kesil natija qo'yilishi uchun respublika OITS markaziga jo'natiladi. OIV kasalligi tashxisi laboratoriya tekshiruvi ijobiy ekanligi va klinik ma'lumotlar asosida qo'yiladi.

### **12-savol. Aliment qaysi kundan beriladi?**

***Aliment ariza tashlangan kundan boshlab to'lanadimi yoki birga yashamayotgan kundan boshlabmi?***

***Oila kodeksining 136-moddasiga binoan***, aliment olish huquqiga ega bo'lgan shaxs, aliment talab qilish huquqi vujudga kelganidan so'ng qancha muddat o'tganidan qat'i nazar, xohlagan vaqtda aliment undirish to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

Mazkur shaxs, nizo bo'lmagan taqdirda, voyaga yetmagan bolalar uchun aliment undirish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli bo'lib, bu ariza buyruq tartibida ish yuritish tarzida ko'rib chiqiladi.

***Aliment sudga murojaat etilgan paytdan boshlab undiriladi.***

*Shunday ekan, aliment sudga aliment undirish to'g'risida murojaat qilib, ariza yozgan vaqtingizdan boshlab undiriladi.*

Agar ta'minot uchun mablag' olish choralari sudga murojaat qilingunga qadar ko'rilganligi, ammo aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning uni to'lashdan bosh tortganligi oqibatida aliment olinmaganligi sud tomonidan aniqlansa, o'tgan davr uchun aliment murojaat etilgan paytdan boshlab uch yillik muddat doirasida undirib olinishi mumkin.

### **13-savol. Agar alimentni to'lamasa**

***Assalomu alaykum. Mening turmush o'rtog'im ozodlikdan mahrum etilgan. Hozir ham jazoni o'tash muassasasida, alimentdan qarzdorligi bor. Alimentni qanday undirsam bo'ladi?***

Oila kodeksining 96-moddasiga ko'ra, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart ekanligi va voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undirilishi keltirib o'tilgan.

Voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash va ularga ta'minot berishda ota-onaning majburiyatlari teng hisoblanadi (97-modda).

Bundan tashqari, ozodlikdan mahrum qilish aliment majburiyatini bajarishda istisno sifatida keltirilmagan. Agar sud aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs kasalligi yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra aliment to'lamaganligini aniqlasa hamda uning moddiy va oilaviy ahvoli yig'ilgan aliment qarzni to'lashga imkon bermaydi deb topsa, aliment to'lovchining da'vosiga binoan uni aliment qarzlarini to'lashdan to'la yoki qisman ozod etishga haqli ekanligi belgilangan (Oila kodeksi, 141-modda).

Oila kodeksining 139-moddasiga ko'ra, aliment qarzi aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadidan undiriladi. Ish haqi va (yoki) boshqa daromad yetarli bo'lmaganda, aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning banklar va boshqa kredit tashkilotlaridagi hisobvaraqlarida turgan pul mablag'idan, tijorat va tijoratchi bo'lmagan tashkilotlarga shartnoma asosida o'tkazilgan pul mablag'idan undiriladi, mulk huquqining o'tishiga olib keluvchi shartnomalar bundan mustasno. Bu mablag' yetarli bo'lmaganda, undirish

aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning qonun bo'yicha undirish qaratilishi mumkin bo'lgan har qanday mol-mulkiga qaratiladi.

Undirish aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning hisobvaraqlaridagi pul mablag'i va uning boshqa mol-mulkiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaratiladi. Demak, ushbu vaziyatda ozodlikdan mahrum qilingan shaxsdan aliment miqdori uning topadigan daromadlaridan, bunday daromadlar bo'lmaganda, Jinoyat ijroiya kodeksining 92-moddasiga ko'ra to'lanadigan mehnat haqidano undirilishi mumkin.

#### **14-savol. Tug'ilganlik haqida guvohnoma olish**

***Tug'ilganlik haqida guvohnoma olish tartibi haqida ma'lumot bersangiz.***

Oila kodeksi 205-moddasiga asosan, bolalarning tug'ilishini qayd etish majburiy bo'lib, bolalar tug'ilgan joydagi yoki ota-onadan birining doimiy yashash joyidagi ***fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida bir oy muddat ichida*** amalga oshirilishi lozim.

«Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ish yuritish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomaning 46-bandiga ko'ra, tug'ilishni qayd etish uchun ***tug'ilganlik haqidagi tibbiy ma'lumotnoma, ota-onalarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar, nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma yoki otalikni belgilash haqidagi ariza yoxud nikohda bo'lmagan onaning arizasi*** taqdim etiladi.

#### **15-savol. Aliment undirish**

***Er xotin ham bir-biridan aliment undira oladimi?***

O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 117-moddasiga ko'ra, er-xotin bir-biriga moddiy yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida, o'rtadagi nogiron bola o'n sakkiz yoshga to'lguncha yoki bolalikdan I guruh nogironi bo'lgan o'rtadagi bolaga qaragan yordamga muhtoj er (xotin) yordam berishga qodir bo'lgan xotin (er)dan sud tartibida ta'minot (aliment) olish huquqiga ega.

Er-xotin (sobiq er-xotin) o'rtasida aliment to'lash to'g'risida kelishuv mavjud bo'lmagan hollarda er yoki xotonga (sobiq er yoki xotonga) sud tartibida undirib beriladigan aliment miqdori sud tomonidan er yoki xotinning (sobiq er yoki xotinning) moddiy va oilaviy ahvolini hamda taraflarning e'tiborga loyiq boshqa manfaatlarini e'tiborga olib, har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi, biroq bu summa qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Demak, ***er-xotin ham bir biridan aliment undirishi mumkin.***

#### **16-savol. Er va xotinning har birining mulki?**

***Nikohdan oldin dadam menga avtomobil hadya qilgan. Hozirda mulkimiz bo'linyapti. Erim ushbu mulkka da'vo qila oladimi?***

Oila kodeksining 25-moddasida er va xotinning har birining mulki haqida tushuncha berilgan bo'lib, unga asosan er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki ulardan har birining o'z mulki hisoblanadi.

Nikoh davomida er-xotinning umumiy mulki yoki ulardan har birining mol-mulki yoxud er va xotindano birining mehnati hisobiga mol-mulkning qiymati ancha oshishiga olib kelgan mablag'lar (kapital ta'mirlash,

qayta qurish, qayta jihozlash va boshqalar) qoʻshilgani aniqlansa, er yoki xotindan har birining mol-mulki ularning birgalikdagi mulki deb topilishi mumkin.

Demak, hadya bu sizning oʻz mulkingiz hisoblanadi.

### **17-savol. Nikoh shartnomasi**

***Assalom alaykum yaqinda oila qurmoqchiman. Nikoh shartnomasi tuzish niyatidamiz. Nikoh shartnomasi haqida ma'lumot bersangiz.***

Oila kodesining 29-moddasiga asosan nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda boʻlgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi.

Ushbu kodeksning 30-moddasiga binoan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin.

Nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

Shuningdek, kodeksning 31-moddasiga ko'ra er va xotin nikoh shartnomasiga ko'ra birgalikdagi umumiy mulkning qonunda belgilangan tartibini o'zgartirishga, er va xotinning barcha mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o'rnatishga haqlidir.

Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Er va xotin nikoh shartnomasida o'zaro moddiy ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir-birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek nikoh shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar kiritishga haqli.

Nikoh shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayyan muddat bilan cheklanishi yoki muayyan shart-sharoitning yuzaga kelishi yoxud kelmasligiga bog'liq qilib qo'yilishi mumkin.

Nikoh shartnomasi er-xotinning huquq layoqati yoki muomala layoqatini, ularning o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqlarini cheklashni, er-xotin o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, er-xotinning bolalarga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlarini tartibga solishni, mehnatga layoqatsiz ta'minot olishga muhtoj er yoki xotinning huquqini cheklovchi qoidalarni, er va xotindan birini o'ta noqulay holatga solib qo'yuvchi yoxud oila to'g'risidagi qonunchilikning

### **18-savol. Bolani olsam bo'ladimi**

***Xotinim bilan ajrashapman. Bolalarni olishga haqqim bormi, qanday olsam bo'ladi?***

O'zbekiston Respublikasi ***Oila Kodeksi 44-moddasi 2-qismiga*** ko'ra, sudlar nikohdan ajratishga oid ishlarni ko'rishda ajrashayotgan er-xotinlarning voyaga yetmagan farzandlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish choralarini ko'rishlarini kerak. Shuning uchun sudlar er va xotin nikohdan ajrashgan taqdirda,

o'rtalaridagi farzandlarini ta'minlash va tarbiyalash haqida o'zaro kelishuvga kelgan-kelmaganligini aniqlashi shart. Agar er-xotin bunday kelishuvga kelmagan bo'lsa, sudya bolalar ota-onaning qaysi birida qolishi va ularning ta'minoti uchun nafaqa undirish masalasini hal qilishi lozim.

Demak, sudga ariza bilan murojaat qilayotganda er-xotin farzandlari kimda qolishini kelishib olishlari mumkin yoki arizada tarafdardan biri farzandi o'zi bilan qolishini talab qila oladi.

- Amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, farzandlar 10 yoshga yetgan bo'lsa, ota-onasidan qay biri bilan qolishni sud ulardan so'raydi va farzandlar fikrini inobatga oladi.
- Agar farzand qaramog'iga olgan taraf qo'l ostida yaxshi qarov ko'rmasa, ikkinchi taraf farzand tarbiyasini o'z qo'lga olishni so'rab sudga qayta murojaat qilishi mumkin.
- Oila Kodeksining 39-moddasiga ko'ra xotining homiladorlik vaqtida va bola tug'ilgandan keyin bir yil mobaynida er xotining roziligisiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga haqli emas. Agar nikohdan ajratishni so'rab murojaat qilayotgan taraf ota tomon bo'lsa, ikkinchi farzandning aniq bir yoshdan oshishini kutishi kerak.

***Farzandlarni ota qaramog'ida qoldirish uchun aynan nima sabablarga ko'ra bu talab qilinayotgani ishonarli va asoslantirilgan holda da'vo arizasida yozilishi kerak. Sud jarayonida esa da'vogar bu asoslarni isbotlab berishi talab etiladi.***

**Masalan:**

1. *onaning farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanmasligi;*
2. *farzandlarni yetarli darajada parvarish qila olmasligi;*
3. *onaning axloqiy buzuvchiligi;*
4. *farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanishni sog'ligi ko'tara olmasligi kabi holatlar isbotlansa, sud farzandlarni ota bilan qolishi haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.*

#### **19-savol. Ismni o'zgartirish**

***Assalomu aleykum meni savolim quyidagicha: meni 2 yoshli bolam bor. Erim bilan ajrashmoqchiman ajrimdan so'ng bolamni ismini o'zgartirish uchun sobiq erimni roziligi kerakmi.***

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan bola o'n olti yoshga to'lguncha bola manfaatlarini e'tiborga olib, uning ismini o'zgartirishga, shuningdek, unga berilgan familiyani ham otasi yoki onasining familiyasiga qarab o'zgartirishga haqlidir.

Agar ota-ona alohida yashasa va bola bilan birga yashovchi ota (ona) bolaga o'z familiyasini berishni xohlasa, vasiylik va homiylik organi bu masalani bolaning manfaatlarini va **ona (ota)ning** (birga yashamaydigan) **fikrini hisobga olgan holda hal qiladi.**

- Ota yoki onaning turgan joyini aniqlash mumkin bo'lmaganda,
- ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda,
- muomalaga layoqatsiz deb topilganda,
- shuningdek, ota yoki ona bolaga ta'minot berish va uni tarbiyalash majburiyatlarini bajarishdan uzrsiz sabablarga ko'ra bo'yin tovlagan hollarda **ota yoki onaning fikrini hisobga olish shart emas.**

Agar bola o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan va otalik qonuniy tartibda belgilanmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organi bolaning manfaatlarini e'tiborga olib. Uning familiyasini onaning murojaat qilgan davridagi familiyasiga almashtirish uchun ruxsat berishga haqli.

O'n yoshga to'lgan bolaning ismi yoki familiyasini o'zgartirishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.



*Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, agar sobiq turmush o'rtog'ingiz yuqorida keltirilgan holatlardan birida bo'lmasa, uning fikri albatta inobatga olinadi.*

## **20-savol. Nikoh nima?**

*Nikoh haqida ma'lumot berib o'tsangiz.*

O'zbekiston Respublikasi **Oila kodeksining 13-moddasiga ko'ra**, Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi.

Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.

Uzrli sabablar bo'lganda, ya'ni fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

Alohida hollar (**homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar**)da **nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin.**

Nikoh tuzish fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. **Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi.**

Nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun **o'n sakkiz yosh etib belgilanadi.**

Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi **Oila kodeksining 17-moddasiga** muvofiq, Nikohlanuvchi shaxslar davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul asosda tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Tibbiy ko'rikdan o'tish hajmi va tartibi **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.**

Nikohlanuvchi shaxslar ellik yoshdan oshgan bo'lsa, alohida hollar homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosi) mavjud bo'lganda tibbiy ko'rikdan o'z roziligi bilan o'tkaziladi.

## **21-savol. Ota-onalik huquqini amalga oshirish**

*Quyidagicha savolim bor? Boladan alohida yashayotgan otaning otalik huquqini amalga oshirishi haqida ma'lumot bersangiz.*

Oila kodeksining 76-moddasiga asosan boladan alohida yashayotgan ota (ona) bola bilan ko'rishish, uning tarbiyasida ishtirok etish va ta'lim olishi masalasini hal etishda qatnashish huquqiga ega.

Bola bilan birga yashayotgan ota (ona) bolaning ona (ota)si bilan ko'rishishiga, agar bunday ko'rishish bolaning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga, axloqiy kamolotiga zarar keltirmasa, qarshilik qilmasligi kerak.

Ota-ona boladan alohida yashaydigan ota (ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida yozma ravishda kelishuv tuzishga haqlidir. Agar ota-ona kelisha olmasalar, nizo ota-ona (yoki ulardan biri) ning talabiga binoan sud tomonidan vasiylik va homiylik organi ishtirokida hal qilinadi. Sudning hal qiluv qarori bajarilmaganda aybdor ota-onaga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi. Sudning hal qiluv qarori qasddan bajarilmagan taqdirda sud boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning talabiga binoan bola manfaatlarini va uning fikrini hisobga olgan holda bolani unga berish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Boladan alohida yashayotgan ota (ona) tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va boshqa shunga o'xshash muassasalardan o'z bolasi to'g'risida axborot olish huquqiga ega. Ota (ona) tomonidan bolaning hayoti va sog'lig'i uchun xavf-xatar bo'lgandagina, ularga axborot berish rad etilishi mumkin. Axborot berishning rad etilishi ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

## **22-savol. Aliment puli qancha?**

***Assalomu alaykum Man ikki nafar farzandim uchun erimni alimentga berdim. Erim davlat ishida ishlaydi aliment hisob kitobiga erimning yillik ish haqqiyam hisobga olinadimi yoki faqat oladigan har oylik ish haqqimi?***

O'zbekiston Respublikasining amaldagi **Oila kodeksi, 99-moddasida** undiriladigan aliment miqdori belgilangan.

Mazkur moddaga ko'ra:

Agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining:

1- bola uchun - to'rttdan bir qismi;

2- bola uchun - uchdan bir qismi;

3 va undan ortiq bola uchun - yarmisi miqdorida undiriladi.

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Bundan tashqari **ushbu kodekning 102-moddasida** ota-onalardan bolalarga undiriladigan aliment miqdorini aniqlash tartibi belgilangan. Moddaga ko'ra:

Ota-onadan bolalarga undiriladigan aliment miqdori aliment to'lovchining oylik ish haqiga va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan ulushlar hisobida yoki pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin.

Aliment to'lashi shart bo'lgan ota-onaning ish haqi va (yoki) boshqa daromadi doimo bir xilda bo'lmay, o'zgarib tursa yoxud daromadining bir qismini natura tarzida oladigan bo'lsa, shuningdek daromaddan ulush tarzida aliment undirish imkoniyati bo'lmasa yoki ota-ona rasman belgilangan ish haqi yoki daromadga ega bo'lmasa, voyaga yetmagan bolalarning ta'minoti uchun to'lanishi lozim bo'lgan aliment miqdori har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin.

Ya'ni bunda agar aliment to'lashi shart bo'lgan ota-onaning doimiy ish joyi bo'lmagan yoki doimiy daromadga ega bo'lmagan holatlari nazarda tutilmoqda.

**Demak, sizning turmush ish joyiga va oylik ish haqiga ega bo'lganligi uchun sizning ikki nafar farzandingizga oylik ish haqining uchdan bir qismi miqdoriga aliment belgilanadi.**

### **23-savol. Aliment kelishuvi**

***Assolomu alaykum. Men bolalarimni moddiy taminlab kelyapman. Xotinim bilan kelishuv tuzmoqchiman? Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv haqida ma'lumot bersangiz.***

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs bilan aliment oluvchi o'rtasida tuziladi. Agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lsa, kelishuv uning qonuniy vakili bilan tuziladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.

Aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzishning qonunda belgilangan shakliga rioya qilmaslik, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan oqibatlarga olib keladi.

Notarial tartibda tasdiqlangan aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv ijro varaqasi kuchiga ega bo'ladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv taraflarning o'zaro roziligi bilan istalgan vaqtda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uni o'zgartirish yoki bekor qilish ham o'sha shaklda amalga oshiriladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvning bajarilishini bir tarafdama rad qilishga yoki uning shartlarini bir tarafdama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolda jiddiy o'zgarishlar yuz berganda hamda aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida ular o'zaro kelisha olmaganda, manfaatdor taraf kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilishga haqli. Sud aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish masalasini hal qilishda taraflarning e'tiborga loyiq har qanday manfaatini hisobga olishga haqli.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan to'lanadigan alimentlarning miqdorini taraflar shu kelishuvda belgilaydilar.

Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan to'lanadigan alimentning miqdori aliment sud tartibida undirilganda bolalar olishi mumkin bo'lgan miqdordan kam bo'lmasligi kerak.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv bo'yicha aliment to'lash usullari va tartibi shu kelishuv bilan belgilanadi.

Alimentlar: aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan ulushlarda; vaqti-vaqtida pul bilan to'lanadigan qat'iy summada; bir yo'la pul bilan to'lanadigan qat'iy summada; mol-mulk bilan yoki kelishuvda qayd etilgan boshqa usullarda to'lanishi mumkin.

Aliment to'lash haqidagi kelishuvda aliment to'lashning turli usullarini birga qo'shib qo'llash nazarda tutilishi mumkin.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv bo'yicha to'lanadigan aliment miqdorini indeksatsiya qilish shu kelishuvga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **24-savol. Aliment qarzi?**

***Hozirgi kunda sharoitim og'ir. Alimentdan ikki million so'm qarzidorligim bor. Xotinimning oylik maoshi o'n million so'm. Ushbu qarzni to'lay olmaman. Aliment qarzini to'lashdan ozod qilinishingim mumkinmi?***

Oila kodeksining 141-moddasida aliment qarzini to'lashdan ozod qilish tartibi keltirilgan bo'lib, unga ko'ra taraflar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq aliment qarzini to'lashdan ozod qilish yoki uni kamaytirishga taraflarning o'zaro roziligi bo'lgandagina yo'l qo'yiladi, voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lanadigan hollar bundan mustasno.

Agar sud aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs kasalligi yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra aliment to'lamaganligini aniqlasa hamda uning moddiy va oilaviy ahvoli yig'ilgan aliment qarzni to'lashga imkon bermaydi deb topsa, aliment to'lovchining da'vosiga binoan uni aliment qarzlarini to'lashdan to'la yoki qisman ozod etishga haqlidir.

Demak, yuqorida keltirilgan holatda ***aliment qarzini to'lashdan ozod qilinishingiz mumkin.***

#### **25-savol. Chetga chiqsam bo'ladimi?**

***Assalomu alaykum nikoh davrida bolani chet elga olib chiqish mumkinmi. Ajrimdan so'ngchi.***

Voyaga yetmagan shaxslarning xorijga chiqish tartibi **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4079-son qaroriga 1-ILOVA O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibi to'g'risidagi** nizomi asosida tartibga solinadi.

Xorijga chiqish uchun har bir shaxsdan O'zbekiston Respublikasining xorijga chiqish biometrik pasporti talab qilinadi. Yuqoridagi nizomga ko'ra xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish chog'ida bolaning O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan ota-onalarining, agarda farzand birgalikdagi nikohda voyaga yetmayotgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan sobiq turmush o'rtog'ining notarial tasdiqlangan roziligi haqidagi ma'lumot taqdim etilishi lozim.

Shuningdek ushbu nizomga ko'ra, bolaning otasi yoki onasi o'z farzandining xorijga chiqishiga rozi bo'lmasa, uning xorijga chiqish huquqini cheklash uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega.

**Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turmush o'rtog'ingiz bilan o'rtangizda nikoh bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar o'z farzandingizni xorijga olib ketmoqchi bo'lsangiz, unda turmush o'rtog'ingizning notarial tasdiqlangan yozma roziligi talab qilinadi.**

#### **26-savol. Nikohdan ajratish**

***O'rtada 1-yoshga to'lmagan farzand borligi sababli Sud tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha Qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risidagi qarorni 6-bandiga ko'ra er tomonidan da'vo arizasi berishga xaqli bo'lmasa va 1-yil davomida nikohdan ajratish mumkin bo'lmasa bu vaziyatda xotin notarial tasdiqlangan yozma ariza bilan erni uylanishiga rozilik berishi mumkinmi. Erni qayta Oila qurishga xaqqi bormi 1-yil davomida? Agarda ikkala taraf xam ajrimga rozi bo'lsa bu vaziyatda sud sinov muddatisiz ajrim berishi mumkinmi? Agar ajrimga xotin birinchi ariza bergan bo'lsachi?***

**Oila kodeksining 39-moddasiga** ko'ra, xotinining homiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotinining rozilgisiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga haqli emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldagi 06-sonli "**Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida**"gi qarorining 6-bandiga ko'ra esa er xotinining rozilgisiz uning homiladorligi vaqtida va bola tug'ilganidan so'ng bir yil mobaynida nikohdan

ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga, garchi u tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftarida bolaning otasi sifatida yozilmagan bo'lsa ham, haqli emas. Mazkur qoida bola o'lik tug'ilgan yoki bir yoshga to'lmay vafot etgan hollarga ham tatbiq etilishi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, ushbu plenum qarorida Oila kodeksining 39-moddasida ko'rsatilgan holatlar mavjudligi nikohdan ajratish to'g'risidagi da'vo xotin tomonidan qo'zg'atilishiga to'sqinlik qilmaydi deb belgilab qo'yilgan.

**Oila kodeksining 16-moddasida** loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida nikoh tuzilishiga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

**Demak, hurmatli fuqaro. Sizning farzandingiz 1 yoshga to'lmagan bo'lsa, siz ajrashish haqida ariza berolmaysiz. Ammo, ajrashish to'g'risidagi arizani xotiningiz o'z xohishiga ko'ra bersa, sud arizani qanoatlantirishi mumkin.**

**Boshqa turmush qurish haqidagi masalada esa, siz bitta nikohni bekor qilmasdan turib ikkinchi nikohga kirolmaysiz. Demak, siz boshqa ayolga uylanish uchun oldin xotiningiz bilan rasman ajrashib, ajrimni FHDY organida ro'yxatdan o'tkazishingiz kerak.**

**27-savol. Otam aliment undirishi mumkinmi?**

*Biz onam qaramog'ida 4 ta farzand yashaymiz. Onam, opam ishlashadi Man, 2ta ukam kontrakt asosida o'qiyemiz:12mln, 25mln, 30mln. Dadam bn yashamayotganimizga 10yildan oshdi. Dadam opamni sudga berdi, aliment undirish uchun Qaror eng kam ish haqining 12%i belgilandi. Endi dadam meni ham sudga bermoqchi. Man 10 yildan beri birga yashamasligimiz, dadam undan oldin ham Rossiyada yurgani, bizni deyarli moddiy ta'minlamaganini asos qilib, dadamni otalik huquqidan kechib, keyinchalik mendan aliment undirishlarini oldini olsam bo'ladimi.*

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida** voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar deb belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, **Oila kodeksining 109-moddasida** ham voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shartligi belgilangan.

Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog'ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g'amxo'rlik qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi.

**Ushbu kodeksning 110-moddasida** ota-onaga beriladigan ta'minot miqdori va tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovtasalar, ta'minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Ota-ona, aliment undirish haqidagi talabni o'z bolalarining biriga yoki bir nechtasiga nisbatan qo'yanligidan qat'i nazar, aliment miqdorini belgilashda sud voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning barchasini hisobga olishi lozim.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

**Oila kodeksining 113-moddasiga** ko'ra, agar sud ota-onaning ota-onalik majburiyatini bajarishdan bo'yin tovtaganligini aniqlasa, bolalarni mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilishi mumkin.

Demak, siz otangizga aliment to'lashdan faqat sud qarori asosidagina ozod qilinishingiz mumkin.

Otalik huquqidan mahrum qilish bo'yicha savolingizga esa **Oila kodeksining 79-moddasi asosida javob beramiz:**

Ota-ona (ulardan biri) quyidagi hollarda ota-onalik huquqidan mahrum qilish mumkin:

- ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa;
- uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;
- ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa;
- muttasil ichkilikbozlik yoki giyovandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa;
- o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa

Otalik huquqidan mahrum qilish faqat sud qarori asosida amalga oshadi.

### **28-savol. Bolaning nasl-nasabi?**

***Assalomu alaykum. Sizga bir savolim bor. Bolaning nasl-nasabini belgilash asoslari haqida ma'lumot bersangiz.***

Oila kodeksining 60-moddasiga ko'ra bolaning shu onadan tug'ilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga ko'ra, bola tibbiy muassasada tug'ilmagan holda esa, boshqa dalillarga asosan belgilanadi.

Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining o'limi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so'ng uch yuz kun ichida tug'ilgan bolasi nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi.

Agar nikoh tugaganidan keyin uch yuz kun ichida bola tug'ilsa va bu davrda ayol yangi nikohga kirgan bo'lsa, bola yangi nikohda tug'ilgan hisoblanadi. Bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasl-nasabi xususida nizolashish huquqiga ega.

Ushbu kodeksning 61-moddasiga binoan bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxsning otaligi o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi.

Ona vafot etganda, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda yoki u onalik huquqidan mahrum qilinganda, otalik vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan holda o'zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning arizasiga binoan belgilanadi.

Bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, otalikni belgilash to'g'risidagi arizani uning nomidan vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan uning homiysi berishi mumkin.

Otalikni belgilash to'g'risidagi ariza bolaning tug'ilganligini qayd etish vaqtida, shuningdek bola tug'ilganligi qayd etilgandan keyin ham berilishi mumkin. Agar otalikni belgilash to'g'risida bola tug'ilgandan so'ng er-xotin birgalikda ariza berishining imkoni bo'lmay qolishi yoki mushkul bo'lishini ko'rsatuvchi asoslar mavjud bo'lsa, tug'ilajak bolaning o'zaro nikohda bo'lmagan ota-onasi shunday arizani ona homiladorlik vaqtida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga berishga haqli.

Otalikni belgilash rad etilganda, o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs sud tartibida shikoyat qilishi mumkin.

### **29-savol. Onalikdan mahrum qilish**

***Savolim bor edi. Farzandimning onasi hozirda chet davlatda. Bolasiga g'amxo rlik qilmaydi, uni onalikdan huquqidan mahrum etmoqchiman. Agar uni bu huquqdan mahrum qilsam qanday oqibatlarga olib keladi?***

Oila kodeksining 81-moddasiga asosan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta'minot olish, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqlaridan mahrum bo'ladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani o'z bolasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) bundan keyin bola bilan birgalikda yashash-yashamaslik masalasi sud tomonidan uy-joy to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

Ota-onasi (ulardan biri) o'ziga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bola, agar u farzandlikka olingan bo'lmasa, turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi, shuningdek ota (ona)si va boshqa qon-qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan barcha mulkiy huquqlarini, jumladan meros olish huquqini saqlab qoladi.

Bolani ota yoki onasiga berishning imkoniyati bo'lmagan yoki ota-onaning har ikkalasi ham ota-onalik huquqidan mahrum qilingan taqdirda, bola vasiylik va homiylik organining qaramog'iga olib beriladi.

Ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda bolani farzandlikka olishga ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori chiqarilgan kundan keyin kamida olti oy o'tgach yo'l qo'yiladi.

### **30-savol. Rozilik asosida nikohdan ajratish**

***Voyaga yetmagan farzandlarimiz yo q. Turmush o'rtog'im nikohdan ajratishga rozi. Voyaga yetmagan farzandlari bo'lmagan er-xotinlarni ularning o'zaro roziligiga ko'ra nikohdan ajratishni taribi haqida tushuntirib bersangiz.***

Ushbu savoloningizga Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-son qaroriga 1-ILOVA qilingan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini" asosida javob beramiz.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 42 va 218-moddalariga muvofiq FHDY organi mulkiy nizolari hamda voyaga yetmagan farzandlari (shu jumladan, farzandlikka olinganlari) bo'lmagan er-xotinlardan nikohdan ajratish to'g'risidagi arizani qabul qiladi.

FHDY organi er-xotinni yarashtirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish uchun er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo'lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

Alohida yashovchi er-xotinni nikohdan ajratishni qayd etish ularning birgalikda bergan arizalariga asosan, ulardan birining doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyidagi FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar er-xotindan biri nikohdan ajralish to'g'risidagi arizani berish uchun FHDY organiga kela olmasa, u holda er-xotin nomidan birgalikda yozilgan arizani ulardan biri topshirishi mumkin. Kela olmagan er yoki xotinning arizadagi imzosi notarial tartibda yoki er-xotin doimiy yashayotgan yoki vaqtincha turgan joydagi FHDY organi mudiri tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Arizada er-xotin ajralishga o'zaro rozi ekanliklari, voyaga yetmagan bolalari yo'qligi, shuningdek ulardan biri nikohdan ajratish qayd etilishi belgilangan kunda FHDY organiga kela olmasa, nikohdan ajratishning uning ishtirokisiz qayd etilishiga roziligi tasdiqlanadi.

Bunda FHDY organlari tegishli organlardan voyaga yetmagan farzandlari yo'qligini tasdiqlovchi hujjatlarni so'rashi mumkin.

Agar nikohdan ajralishga er-xotinning o'zaro roziligi bo'lgani holda umumiy mulk haqida yoki mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinning ta'minoti haqida nizolar bo'lsa, u holda nikohdan ajratish sud tartibida hal etiladi.

Nikohdan ajratishni qayd etish er-xotinning yoki ulardan birining ishtirokida nikohdan ajratish haqida FHDY organiga ariza bergan kundan keyin uch oy o'tgach amalga oshiriladi va sobiq er-xotinlarning har biriga nikohdan ajralganlik haqida guvohnoma beriladi.

Er yoki xotindan birining nikohgacha bo'lgan familiyasiga qaytishi to'g'risidagi istagi nikohdan ajratish haqidagi arizasida ko'rsatilishi kerak.

Nikohdan ajratish qayd etilgandan so'ng nikoh tuzilganligi to'g'risidagi guvohnomaga uning tugatilganligi haqida belgi qo'yiladi va u arizachilarga qaytariladi.

Nikohdan ajratishni qayd etishda, er va xotinning o'zaro kelishuviga ko'ra, ularning biridan yoki ikkalasidan belgilangan tartibda davlat boji undiriladi.

Er yoki xotindan birining ishtirokida nikohdan ajratishni qayd etishda davlat boji to'liq miqdorda undiriladi.

**Demak, voyaga yetmagan farzandlari bo'lmagan er-xotinlarni ularning o'zaro roziligiga ko'ra nikohdan ajratishni yuqoridagi tartibda amalga oshiriladi.**









